

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibli: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





G'YOSOV ILXOM KARIMOVICH

Qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning metodologik asoslari.....287

BOLLIYEV SHAMSIDDIN TURSUNMAMATOVICH

Kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari....300

SHARIPOV LAZIZ AKTAM O'G'LI

Comparing parametric and non-parametric efficiency measurement under data quality constraints: stochastic frontier and dea evidence from smallholder sweet sorghum farms in Uzbekistan.....306

KARIMOVA MUHAYYO ORIF QIZI

Qandolatchilik mahsulotlarining sifat nazoratini oshirishda statistik usullardan foydalanishni takomillashtirish.....314

URALOV ELSHOD SIROJIDDIN O'G'LI

Mintaqada intellektual va texnologik salohiyat tushunchasining tatbiq etish.....322

MOVLONOVA DILRABO NOMOZ QIZI

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari.....328

JO'RAYEVA SHAXLO UCHQUN QIZI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning aholi bandligiga ta'siri.....340

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

Innovatsion rivojlanish sharoitida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.....347

MIRZAYEV MUZAFFAR MAXMUDOVICH

Yaponiya-O'zbekiston investitsiya hamkorligi: institutsional tuzilma va evolyutsiya bosqichlar.....356

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

MASHRAPOV AHLIDDIN TURSUNALIEVICH

Farg'ona viloyatining unumdorligi past tuproq – iqlim sharoiti uchun mos, yuqori hosilli o'rik navlarini tanlash.....366

ESHPUATOV DOSTONBEK BOXODIR O'G'LI

Iqlim o'zgarishining paxta va bug'doy hosildorligiga ta'siri: O'zbekiston tumanlari bo'yicha panel ma'lumotlar tahlili (2015–2024).....371

RUZMETOV UMID ISMAILOVICH, ULUGOVA SAFARGUL FAYZULLAEVNA

Toshkent viloyati Bo'stonlik tumani sharoitida dorivor enotera (Oenothera Biennis L.) o'simligini yetishtirish uchun tuproqlarning mexanik tarkibi va agrokimyoviy xususiyatlarini baholash.....385

ПАВШАНОВА Н.А.

Урожайность и продуктивность совмещённых посевов сортов маша с хлопчатником в условиях Ташкентской области.....391

CHARIEVA XILAL DO'STMURATOVNA, TADJIEV MARDONQUL, DJURAEV BAYNIYAZ CHARIEVICH, BEGIMQULOV BEHZOD O'ROLOVICH

Ingichka tolali g'o'zaning konkurs nav sinovi ko'chatzoridagi navlar va tizmalarining qimmatli xo'jalik belgilari.....398





INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi (PhD)

E-mail: n.akhmedova@tsue.uz

<https://orcid.org/0009-0009-0669-2347>

Annotatsiya. Maqolada innovatsion rivojlanish sharoitida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari tadqiq etilgan. Oziq-ovqat ishlab chiqarishining 2020–2025-yillardagi o'zgarishlari tahlil qilingan. Raqamlashtirish, resurs tejamkor texnologiyalar va zamonaviy logistikaning ahamiyati asoslangan. Oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy muammolar aniqlangan. Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va ta'minot zanjiriga joriy etish zarurligi asoslangan. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi baholangan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, innovatsion rivojlanish, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari, raqamlashtirish, agroinnovatsiya, oziq-ovqat ta'minoti, resurs tejamkor texnologiyalar, logistika, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В статье исследованы экономические и институциональные механизмы обеспечения продовольственной безопасности Узбекистана в условиях инновационного развития. Проанализирована динамика сельскохозяйственного и пищевого производства в 2020–2025 годах. Обоснована роль цифровизации, ресурсосберегающих технологий и современной логистики. Выявлены основные проблемы обеспечения продовольственной безопасности. Предложены направления совершенствования инновационных механизмов продовольственного обеспечения.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, инновационное развитие, сельское хозяйство, продукты питания, цифровизация, агроинновации, продовольственное обеспечение, ресурсосберегающие технологии, логистика, устойчивое развитие.

Abstract. This article examines the economic and institutional mechanisms for ensuring food security in Uzbekistan under conditions of innovative development. The dynamics of agricultural and food production during 2020–2025 are analyzed. The importance of digitalization, resource-saving technologies and modern logistics is substantiated. Key challenges affecting food security are identified. Practical directions for improving innovative mechanisms of food security are proposed.

Keywords: food security, innovative development, agriculture, food production, digitalization, agro-innovation, food supply, resource-saving technologies, logistics, sustainable development.

KIRISH

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligi va ijtimoiy xavfsizligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahonda aholi sonining ko'payishi, iqlim o'zgarishi, suv va yer resurslarining cheklanganligi, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgaruvchanligi hamda xalqaro ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar oziq-ovqat xavfsizligi masalasini yanada dolzarb holatga keltirmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining zamonaviy mazmuni faqat aholini yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat emas. U oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi, aholining ulardan iqtisodiy va jismoniy





foydalanish imkoniyati, mahsulotlarning sifati va xavfsizligi hamda oziq-ovqat ta'minotining uzoq muddatli barqarorligini ham qamrab oladi.

O'zbekiston sharoitida ushbu masalaning dolzarbligi, avvalo, aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iste'molchigacha bo'lgan zanjirni modernizatsiya qilish zarurati bilan belgilanadi.

Mamlakatda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va agrar sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Innovatsion rivojlanish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning yangi imkoniyatlarini shakllantirmoqda. Jumladan, raqamli qishloq xo'jaligi, sun'iy intellekt, masofadan monitoring qilish, aqlli sug'orish tizimlari, zamonaviy seleksiya, biotexnologiyalar, avtomatlashtirilgan omborlar va raqamli logistika platformalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimining rivojlanish dinamikasi ham ijobiy tendensiyaga ega. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 538 919,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 4,4 foizga oshgan. Shuningdek, 2025-yilda O'zbekistonda 152,1 trln so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 9,7 foizga yuqori bo'lgan. Shu sababli oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasini innovatsion rivojlanish bilan uyg'un holda tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion rivojlanish sharoitida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat xavfsizligining nazariy mazmunini ochib berish;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid ilmiy yondashuvlarni o'rganish;

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarishining 2020–2025-yillardagi dinamikasini tahlil qilish;

innovatsion texnologiyalarning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini aniqlash;

mavjud muammolarni tizimlashtirish;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning innovatsion mexanizmlarini taklif etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat xavfsizligi masalasi iqtisodiy fanlarda uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan yo'nalishlardan biridir. Dastlabki tadqiqotlarda oziq-





ovqat xavfsizligi asosan mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlarini yetarli miqdorda ishlab chiqarish qobiliyati bilan bog'langan bo'lsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda mazkur tushuncha ancha keng mazmun kasb etgan. FAO yondashuvida oziq-ovqat xavfsizligi barcha insonlarning faol va sog'lom hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan doimiy ravishda ega bo'lish imkoniyati bilan izohlanadi [1]. J. von Braun va M. Torero tadqiqotlarida oziq-ovqat xavfsizligi oziq-ovqat bozorlarining barqarorligi, zaxiralarni boshqarish va aholining zaif qatlamlarini himoya qilish bilan bog'liq holda tadqiq etilgan [2].

J. Pretty qishloq xo'jaligida ekologik va resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi [3]. Ushbu yondashuv O'zbekiston uchun ham muhim bo'lib, suv va yer resurslarining cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamlashtirish masalasida zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar fermerlarning axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi, ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilishni yaxshilashi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va agrar bilimlar tizimini rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. FAO tomonidan O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha Milliy harakatlar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda aqlli sensorlar, geofazoviy texnologiyalar, narxlarni monitoring qilish va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Mavjud tadqiqotlardan farqli ravishda ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligi ishlab chiqarish hajmi bilan chegaralanmay, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, resurslardan samarali foydalanish, saqlash, logistika va oziq-ovqat mahsulotlarining sifati bilan uzviy bog'liq yagona tizim sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli, statistik, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil yordamida 2020–2025-yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining dinamikasi o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali turli yillardagi ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari o'zaro taqqoslandi. Tizimli yondashuv asosida oziq-ovqat xavfsizligi ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika, taqsimot va iste'mol bosqichlarini o'z ichiga oluvchi yagona tizim sifatida tadqiq qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar materiallari, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 2020–2025-yillardagi dinamikasi Oziq-ovqat xavfsizligining asosiy iqtisodiy omillaridan biri



mamlakatning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyatidir. Shu sababli dastlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining so'nggi yillardagi dinamikasini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1-jadval

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining dinamikasi, 2020–2025-yillar

Yil	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, mlrd so'm	O'sish tendensiyasi, %
2020	250 250,6	–
2021	303 415,5	104,0
2022	345 191,7	103,6
2023	405 418,0	104,1
2024	439 948,0	103,1
2025	518 822,7	104,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. 2020–2024-yillar bo'yicha SIAT ma'lumotlari, 2025-yil bo'yicha Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yanvar-dekabr press-relizi asosida.

Jadval ma'lumotlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 2020–2025-yillarda sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. 2020-yilda 250 250,6 mlrd so'mni tashkil etgan mahsulotlar hajmi 2024-yilda 439 948,0 mlrd so'mga yetgan.

2025-yilda esa qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligi bilan bog'liq umumiy mahsulotlar hajmi 538 919,7 mlrd so'mga yetgan. Shundan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, ya'ni ekinchilik va chorvachilik, ovchilik hamda tegishli xizmatlar hajmi 518 822,7 mlrd so'mni tashkil etgan.

Mazkur o'sish oziq-ovqat xavfsizligining ishlab chiqarish bazasi kengayayotganini ko'rsatsa-da, ishlab chiqarish hajmining o'sishi avtomatik ravishda oziq-ovqat xavfsizligining to'liq ta'minlanganligini anglatmaydi. Chunki bunda mahsulotlarning aholiga yetib borishi, narxlarning barqarorligi, mahsulot sifati va ta'minot zanjirining uzluksizligi ham muhim hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda o'rmon va baliq xo'jaligining ham umumiy oziq-ovqat tizimidagi o'rni mavjud.

2-jadval

O'zbekistonda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, 2020–2025-yillar

Yil	Mahsulot va xizmatlar hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
2020	261 892,2	102,9
2021	317 027,6	104,0
2022	362 898,0	103,6
2023	426 030,2	104,1
2024	462 839,2	103,1
2025	538 919,7	104,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi SIAT ma'lumotlari va 2025-yil yakuniy press-relizi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2020–2025-yillarda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi uzluksiz o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2025-yil yakunlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 538 919,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 4,4 foizga

oshgan. 2025-yil umumiy hajmining 518 822,7 mlrd so'mi qishloq va chorvachilik ishlab chiqarishi, ovchilik va tegishli xizmatlarga, 15 081,5 mlrd so'mi o'rmon xo'jaligiga va 5 015,5 mlrd so'mi baliq xo'jaligiga to'g'ri kelgan.

Mazkur tarkib oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi asosiy o'rinni egallashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, oziq-ovqat ratsionini diversifikatsiya qilish uchun baliqchilik va chorvachilikni innovatsion asosda rivojlantirish ham muhimdir. 2025-yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy o'sish yo'nalishlari 2025-yilda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 4,4 foizga oshishiga ayrim mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining sezilarli ko'payishi ta'sir ko'rsatgan.

3-jadval

2025-yilda ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining o'sish

Paxta	125,4
Poliz mahsulotlari	116,2
Don	113,0
Uzum	107,6
Meva	106,4
Tuxum	107,0
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, jami	104,4
Paxta	125,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025-yil yanvar-dekabr ma'lumotlari.

Jadvaldan ko'rinadiki, 2025-yilda paxta ishlab chiqarish 25,4 foizga, poliz mahsulotlari 16,2 foizga, don 13,0 foizga, uzum 7,6 foizga, meva 6,4 foizga va tuxum ishlab chiqarish 7,0 foizga oshgan. Don ishlab chiqarishining 13 foizga oshishi oziq-ovqat xavfsizligi uchun ayniqsa muhim. Chunki don mahsulotlari aholining asosiy oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishda strategik ahamiyatga ega. Biroq oziq-ovqat xavfsizligini faqat don yoki boshqa alohida mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi bilan baholash to'liq natija bermaydi. Oziq-ovqat tizimida mahsulotlarning xilma-xilligi, oziqlanish qiymati, narxlarning aholining daromadlariga mosligi va mahsulotlarning hududlar bo'yicha teng taqsimlanishi ham muhimdir. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning 2025-yildagi holati Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishi oziq-ovqat sanoati uchun xomashyo bazasini kengaytiradi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymat yaratish va oziq-ovqat mahsulotlari taklifini oshirish mumkin.

4-jadval

2025-yilda O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi hududlar

Hudud	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, trln so'm
Toshkent shahri	27,6
Toshkent viloyati	21,5
Samarqand viloyati	19,5
Farg'ona viloyati	11,6
Buxoro viloyati	11,3
Qashqadaryo viloyati	10,2
Andijon viloyati	9,6



Namangan viloyati	8,5
Navoiy viloyati	7,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6,6
Xorazm viloyati	6,0
Sirdaryo viloyati	5,4
Jizzax viloyati	3,3
Surxondaryo viloyati	3,2
O'zbekiston Respublikasi, jami	152,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2025-yilda O'zbekistonda jami 152,1 trln so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan 9,7 foiz ko'pdir.

Hududlar kesimida Toshkent shahri 27,6 trln so'm bilan yetakchi o'rinni egallagan. Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati — 21,5 trln so'm va Samarqand viloyati — 19,5 trln so'm bilan qayd etilgan. Mazkur hududiy tafovut oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar bo'yicha muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, xomashyo bazasi mavjud bo'lgan, biroq qayta ishlash sanoati nisbatan past rivojlangan hududlarda zamonaviy oziq-ovqat korxonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Oziq-ovqat xavfsizligida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati innovatsion texnologiyalar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning barcha bosqichlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Birinchi navbatda, raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, tuproq namligini o'lchaydigan sensorlar, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari, dronlar va GIS texnologiyalaridan foydalanish orqali ekinlarning holatini muntazam kuzatish mumkin.

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar suv resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Suv tanqisligi sharoitida aqlli sug'orish tizimlarining joriy etilishi oziq-ovqat ishlab chiqarishning barqarorligini oshiradi.

Uchinchidan, zamonaviy saqlash va sovitish texnologiyalari mahsulotlarning nobud bo'lishini kamaytiradi. Ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlari bo'yicha sovuq zanjirni rivojlantirish mavsumiy taklifni yil davomida barqarorlashtirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, raqamli logistika tizimlari ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi masofani qisqartirish, transport xarajatlarini kamaytirish va yetkazib berish muddatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Suv resurslarining cheklanganligi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining katta qismi suv resurslariga bog'liq bo'lganligi sababli suvdan samarali foydalanish masalasi strategik ahamiyatga ega.

2. Iqlim o'zgarishi. Haroratning o'zgarishi, qurg'oqchilik va tabiiy-iqlimiy xavflar hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



3. Saqlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ayrim mahsulotlarning ishlab chiqarishdan keyingi bosqichda yo'qotilishi oziq-ovqat ta'minoti samaradorligini pasaytiradi.

4. Qayta ishlash darajasini oshirish zarurati. Xomashyoni tayyor mahsulotga chuqur qayta ishlash orqali oziq-ovqat sanoatida qo'shilgan qiymatni oshirish mumkin.

5. Kichik ishlab chiqaruvchilarning innovatsiyalarga kirish imkoniyatlari. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ishlab chiqarishdagi ulushi yuqori bo'lgani sababli innovatsiyalar aynan ushbu xo'jaliklarga ham yetib borishi zarur.

2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 29,4 foizi fermer xo'jaliklari va 8,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Bu ko'rsatkich kichik ishlab chiqaruvchilarni innovatsion tizimga faol jalb qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijasida O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning innovatsion konsepsiyasini quyidagi o'zaro bog'liq yo'nalishlar asosida shakllantirish taklif etiladi:

Ishlab chiqarish → qayta ishlash → saqlash → logistika → taqsimot → iste'mol → monitoring.

Mazkur tizimda raqamli texnologiyalar barcha bosqichlarni birlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

5-jadval

Oziq-ovqat xavfsizligini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Yo'nalish	Innovatsion mexanizm	Kutiladigan natija
Qishloq xo'jaligi	Aqlli dehqonchilik, dron, GIS, sensorlar	Hosildorlik oshishi
Suv xo'jaligi	Aqlli sug'orish tizimlari	Suv sarfi kamayishi
Seleksiya	Iqlimga chidamli navlar	Hosil barqarorligi
Qayta ishlash	Zamonaviy texnologik liniyalar	Qo'shilgan qiymat oshishi
Saqlash	Sovutish va zamonaviy omborlar	Yo'qotishlar kamayishi
Logistika	Raqamli logistika platformalari	Yetkazib berish samaradorligi
Bozor	Raqamli narx monitoringi	Bozor shaffofligi
Sifat nazorati	Raqamli kuzatuv va laboratoriyalar	Oziq-ovqat xavfsizligi
Kadrlar	Innovatsion agrolim	Inson kapitali rivoji
Boshqaruv	Boshqaruv	Boshqaruv

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur konsepsiyaning asosiy xususiyati oziq-ovqat xavfsizligini faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki butun oziq-ovqat qiymat zanjirini innovatsion asosda boshqarish orqali ta'minlashdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarishining so'nggi yillarda ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatdi. 2020–2025-yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hajmi sezilarli darajada



oshgan. 2025-yilda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 538 919,7 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 4,4 foiz o'sish qayd etilgan.

Shuningdek, 2025-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 152,1 trln so'mga yetgani va bir yil davomida 9,7 foizga oshgani oziq-ovqat sanoatining rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini uzoq muddatli istiqbolda ta'minlash uchun faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishning o'zi yetarli emas. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iste'molchigacha bo'lgan barcha jarayonlarni innovatsion asosda tashkil etish talab qilinadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini baholashning kompleks milliy indikatorlar tizimini shakllantirish zarur. Ushbu tizimda oziq-ovqat mahsulotlari mavjudligi, aholining xarid qobiliyati, narxlar barqarorligi, mahsulot sifati, importga bog'liqlik va oziq-ovqat yo'qotishlari kabi ko'rsatkichlar hisobga olinishi kerak.

Ikkinchidan, oziq-ovqat xavfsizligining yagona raqamli monitoring platformasini yaratish maqsadga muvofiq. Unda ishlab chiqarish, zaxiralar, narxlar, import-eksport, logistika va iste'mol bo'yicha ma'lumotlar integratsiya qilinishi lozim.

Uchinchidan, suv tejovchi va iqlimga moslashuvchan agrotexnologiyalarni kengaytirish zarur. Ayniqsa, sensorlar, sun'iy yo'ldosh monitoringi va aqlli sug'orish texnologiyalaridan foydalanish oziq-ovqat ishlab chiqarish barqarorligini oshiradi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish kerak. Bu orqali mavsumiy yo'qotishlarni kamaytirish va oziq-ovqat mahsulotlari taklifining barqarorligini oshirish mumkin.

Beshinchidan, kichik ishlab chiqaruvchilarni innovatsion jarayonlarga jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. 2025-yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgani ushbu yo'nalishning naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Oltinchidan, ilm-fan, oliy ta'lim, innovatsion markazlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Bu yangi agrotexnologiyalarni tezroq ishlab chiqarishga joriy etish imkonini beradi.

Yettinchidan, oziq-ovqat mahsulotlarini "ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha" kuzatish imkonini beruvchi raqamli tizimni kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday tizim mahsulot sifati va xavfsizligi ustidan nazoratni kuchaytiradi.

Sakkizinchidan, hududlar bo'yicha oziq-ovqat sanoatining ixtisoslashuvini hisobga olgan holda innovatsion oziq-ovqat klasterlarini rivojlantirish zarur. Bu xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning kelgusi bosqichi "ishlab chiqarish hajmini oshirish" modelidan "innovatsion,





raqamli, resurs tejamkor va barqaror oziq-ovqat tizimi” modeliga bosqichma-bosqich o’tishni talab qiladi. Mazkur yondashuv nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko’paytirish, balki ularning sifati, narx barqarorligi, aholiga yetib borishi va uzoq muddatli mavjudligini ta’minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. FAO. (2006). Food Security. Policy Brief, Issue 2. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
2. von Braun, J., & Torero, M. (2009). Physical and virtual global food reserves to protect the poor and prevent market failure. IFPRI Policy Brief.
3. Pretty, J. (2008). Agricultural sustainability: Concepts, principles and evidence. Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences, 363(1491), 447–465.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo’ljallangan strategiyasini tasdiqlash to’g’risida. PF-5853-son Farmon.
5. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi. (2025). Qishloq xo’jaligi mahsulotlari umumiy hajmi, 2010–2024-yillar. SIAT ma’lumotlar bazasi.
6. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi. (2025). Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi mahsulotlari va xizmatlarining umumiy hajmi. SIAT ma’lumotlar bazasi.
7. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi. (2026). O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2025-yil yanvar–dekabr.
8. O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi. (2026). Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qaysi hudud yetakchi?
9. FAO. National Programme of Action for the Digitalization of Agriculture in Uzbekistan. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
10. World Bank. (2022). Food Security Update. Washington, DC: World Bank.
11. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations.
12. Swinnen, J. (2018). The Political Economy of Agricultural and Food Policies. Palgrave Macmillan.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**